QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA “AYOL” OBRAZINING LINGVISTIK TAHLILI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.056

Choriyeva Sevara Muxiddin qizi,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi 2-bosqich magistranti,
Turayeva Umida Shuxratovna,
Alfraganus universiteti, Phd., dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek adabiyotidagi ayol obrazining lingvistik tahlilini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, til orqali madaniy, ijtimoiy va gender ma’nolar qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Leksik tanlovlar, metaforalar, nutq shakllari va badiiy tuzilmalarning tahlili orqali ayol qahramonlar milliy madaniy kodlar, ijtimoiy normalar va tarixiy an’analarni aks ettirishi ko‘rsatiladi. Tadqiqot sharq va g‘arb adabiyotlaridagi ayol tasvirlari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni ochib beradi: masalan, o‘zbek matnlarida ayol ko‘pincha jamiyat va oila qadriyatlarini, axloqiy fazilatlarni ta’kidlaydi, g‘arb adabiyotida esa mustaqil, shaxsiy qaror qabul qiluvchi va o‘z dunyoqarashiga ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Lingvokulturologik yondashuv ayol obrazining semantik, ramziy va madaniy qatlamlarini aniqlashga yordam beradi. Maqola til, madaniyat va genderning adabiy matnlardagi o‘zaro bog‘liqligini tushunish uchun lingvistik, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik metodlarini birlashtirishning muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, lingvokulturologiya, adabiy tahlil, gender tasviri, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, madaniy kodlar, diskurs tahlili.*

LINGUISTIC ANALYSIS OF THE FEMALE IMAGE IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Abstract: This article examines the linguistic analysis of the female image in English and Uzbek literature, focusing on how language conveys cultural, social, and gendered meanings. By analyzing lexical choices, metaphors, speech patterns, and narrative structures, the study demonstrates how female characters reflect national cultural codes, societal norms, and historical traditions. The research highlights differences and similarities between Eastern and Western literary representations of women, showing, for example, how traditional Uzbek texts often emphasize collective values, familial roles, and moral virtues, whereas English literature frequently portrays women as autonomous, self-reflective, and independent agents. The article

employs a linguoculturological approach to reveal the semantic, symbolic, and cultural layers of the female image, providing insight into the interaction between language, culture, and gender in literary texts. The study underscores the importance of integrating linguistics, cultural studies, and literary criticism to understand the multifaceted representation of women across different literary traditions.

Keywords: *female image, linguoculturology, literary analysis, gender representation, English literature, Uzbek literature, cultural codes, discourse analysis.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: Данная статья посвящена лингвистическому анализу образа женщины в английской и узбекской литературе, с акцентом на то, как язык отражает культурные, социальные и гендерные смыслы. Анализ лексики, метафор, речевых форм и художественных структур показывает, как женские персонажи отражают национальные культурные коды, социальные нормы и исторические традиции. Исследование выявляет различия и сходства в изображении женщин в восточной и западной литературе: например, в узбекских текстах женщины часто представлены через ценности семьи и общества, а также через моральные качества, тогда как в английской литературе женщины изображаются как самостоятельные, обладающие личными взглядами и способностью принимать решения. Лингвокультурологический подход позволяет выявить семантические, символические и культурные слои образа женщины. Статья подчеркивает важность интеграции лингвистических, культурологических и литературоведческих методов для понимания многоаспектного изображения женщин в различных литературных традициях.

Ключевые слова: *образ женщины, лингвокультурология, литературный анализ, гендерное изображение, английская литература, узбекская литература, культурные коды, дискурс-анализ.*

Globallashuv, standartlashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda turli xalqlar tili va madaniyatini o‘rganish,

ularni qiyosiy tahlil qilish, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq etish dolzarb

vazifalardan hisoblanadi [8; 56-b.]. Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir degan faraz qabul qilina boshlanadi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko‘rinishida) va uning tarkibiy qismidir[6; 12-b.].

Til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi [2; 23-b.]. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon

bo‘ladi. Bu o‘rinda ko‘p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko‘plab tovushlar almashinuvi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog‘liqdir[2; 45-b.].

Ayol obrazining adabiyotdagi talqini har doim ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim masala hisoblanadi [11; 89-b.]. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayol obrazini o‘rganish adabiyotshunoslikda mustaqil yo‘nalish sifatida shakllangan feministik tanqidning rivojlanishiga olib keldi [5; 101-b.]. Shu yo‘nalish genderning ijtimoiy konstrukt sifatida qaralishi, ayolning badiiy matndagi tasviri, stereotiplar va patriarxal poetika masalalariga e’tibor qaratadi [3; 34-b.].

Ingliz va o‘zbek adabiyotida ayol obrazining lingvistik tahlili til, madaniyat va gender o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi samarali metodologik yondashuv sifatida rivojlanmoqda [7; 67-b.]. Lingvokulturologik yondashuv orqali badiiy matndagi so‘z, metafora, timsol, nutq shakllari va konseptlar milliy madaniy kodlar, ijtimoiy qadriyatlar va tarixiy xotira bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi [6; 45-b.].

Lingvokulturologik tahlil badiiy matnni nafaqat til birliklari yig‘indisi sifatida, balki madaniy kodlar, tarixiy xotira, milliy mentalitet va ijtimoiy qadriyatlarni mujassam etgan murakkab estetik tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi [8; 78-b.]. Masalan, qadimgi o‘zbek epik asarlarida ayol ko‘pincha ona, baraka va hayot manbai sifatida tasvirlangan bo‘lsa, o‘rta asrlarda diniy va axloqiy qadriyatlar uning obrazini sabr, itoatkorlik va poklik timsoli sifatida cheklagan [1; 15-b.]. Uyg‘onish davrida esa shaxsiy o‘zlik va ma’naviy-ruhiy dunyo qayta kashf etilgan [4; 42-b.].

Badiiy matnda so‘z, metafora, obraz yoki nutq shakli muayyan madaniy an’ana, tarixiy tajriba va milliy psixologiya bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, lingvokulturologik tahlil matnning chuqur ma’nosini ochishda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotida ayol ko‘pincha jamiyat va oila qadriyatlarini, axloqiy fazilatlarni ifodalaydigan timsol sifatida tasvirlanadi [1; 23-b.]. Masalan, “ona” konsepti faqat biologik tushunchani emas, balki vatan, mehr, baraka va hayot manbaini anglatadi. “Yor” konsepti esa romantik obraz sifatida qolgani bilan birga, ma’naviy uyg‘onish va komillik timsoli ham bo‘lishi mumkin [7; 71-b.] .

G‘arb adabiyotida ayol tasviri ko‘proq mustaqil, shaxsiy qaror qabul qiluvchi va individual g‘oyalarga ega shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Masalan, Virjiniya Vulf va Simona de Bovuar asarlarida ayol obrazining ichki monologi, ruhiy kechinmalari va o‘zligini anglash jarayoni markaziy mavzular sifatida ochib beriladi [9; 12-b., 11; 121-b.].

Virginia Woolfning “Mrs Dalloway” romani zamonaviy ingliz adabiyotida ayol obrazining eng murakkab va ko‘p qirrali tasvirlaridan biri sifatida qaraladi. Roman markazida Clarissa Dalloway ismli ayol qahramon turadi, uning kundalik hayoti va ichki monologlari orqali Woolf viktoriyaning oxirgi davri va XX asr boshidagi ingliz jamiyatining ijtimoiy, madaniy va gender munosabatlari tasvirini beradi

Clarissa Dalloway — bu mustaqil, o‘zini anglaydigan va shaxsiy qarorlar qabul qila oladigan ayol**,** u jamiyatning o‘rnatgan rollari va shaxsiy istaklari o‘rtasida muvozanat topishga harakat qiladi. Asarda uning ichki dunyosi — bolalik xotiralari, sevgi va do‘stlik hissiyotlari, oilaviy va ijtimoiy majburiyatlari — chuqur psixologik tahlil orqali ochiladi. Woolfning stream of consciousness (ong oqimi) texnikasi orqali o‘quvchi Clarissaning ichki dunyosiga to‘liq kirib, uning ruhiy kechinmalarini, tashvish va xursandliklarini his qilishi mumkin bo‘ladi [9; 35-37-40-42-b.].

Clarissa obrazida G‘arb madaniy qadriyatlari va viktorian stereotiplari aks ettiriladi. U jamiyatdagi o‘rni, ziyolilar ijtimoiy doirasi, ziyofatlar va odob-axloq qoidalariga bo‘lgan e’tibori orqali madaniy kodlar va ijtimoiy normalarni aks ettiradi. Shu bilan birga, uning ichki monologlari, xotiralari va ruhiy tahlillari ayolning individual shaxsiyligi, ichki erkinligi va o‘zligini anglash jarayonini ko‘rsatadi.

Clarissa va boshqa qahramonlarning nutqi, shuningdek muallifning badiiy uslubi lingvokulturologik tahlil uchun juda boy materialdir. Ichki monologlar, dialoglar, shaharning ovozlari, gullar va boshqa timsollar orqali ayolning ruhiy holati, dunyoqarashi va jamiyat bilan aloqasi ochib beriladi. Masalan, Clarissaning gullarga bo‘lgan e’tibori uning sezgirligi, estetik didi va hayotiy qadriyatlarini ramziy tarzda ifodalaydi. Shuningdek, shaharning ovozlari va harakatlari uning ruhiy holatini, vaqt oqimini va kundalik hayotdagi ijtimoiy bosimni aks ettiradi.

Mrs Dalloway romani ayol obrazining ichki monologi va psixologik murakkabligini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Clarissa o‘zligini anglash, o‘z qadriyatlarini va shaxsiy erkinligini aniqlash jarayonida jamiyatning kutilgan rollari bilan ziddiyatga kiradi. U viktorian qadriyatlariga bo‘ysunishga majbur bo‘lsa-da, ichki dunyosida mustaqil qaror qabul qiluvchi va shaxsiy tajribaga ega ayol sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu jihat bilan, ingliz va o‘zbek adabiyotida ayol obrazining lingvistik tahlili orqali turli madaniy stereotiplar, qadriyatlar va gender rollari o‘rganiladi. Bunday tahlil nafaqat syujet va xarakterni, balki badiiy matnning milliy va madaniy kontekstini ham yoritadi. Lingvokulturologik tahlil bu nutqiy va leksik birliklarning madaniy, ijtimoiy va gender kontekstidagi ma’nosini ochib beradi, shuningdek, badiiy matnning estetik qatlamini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek adabiyotida ayol obrazining lingvistik tahlili-bu til, madaniyat va gender o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi samarali metodologiya. Lingvokulturologik yondashuv orqali badiiy matndagi ayol obrazining semantik, madaniy va estetik qatlamlari tahlil qilinadi, shuningdek, turli madaniy makonlarda ayolning ijtimoiy va shaxsiy roli ham yoritiladi. Bu yo‘nalish XXI asr adabiyotshunosligining eng samarali metodlaridan biri hisoblanadi va adabiyotning milliy va transmilliy kontekstlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho‘lpon. (2008). *Kecha va kunduz*. Toshkent: “Sharq”, b. 15, 23.
2. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman, b. 23, 45.
3. Irigaray, L. (1985). *This Sex Which Is Not One*. Ithaca: Cornell Uni4versity Press, b. 34, 55.
4. Kholmatov, B. (2011). *O‘zbek adabiyotida ayol obrazining tadqiqi.* Toshkent: O‘qituvchi, b. 42, 58.
5. Kristeva, J. (1980). *Powers of Horror: An Essay on Abjection*. New York: Columbia University Press, b. 88, 101.
6. Kurbankhanova, N. (2014). *Lingvokulturologiya va adabiy matn*. Toshkent: Fan, b. 12, 45.
7. Sultonova, D. (2018). *Gender va adabiyot: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Akademiya, b. 67, 71.
8. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford: Oxford University Press, b. 56, 78.
9. Woolf, V. (1925). Mrs Dalloway. London: Hogarth Press, b. 12, 35, 37, 40, 42.
10. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation.* London: Routledge.
11. Beauvoir, S. de. (1949). *The Second Sex*. Paris: Gallimard, b. 89, 121.